

O`QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH TAYANCH
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA

Botiraliyeva Maftuna Botirali qizi

Qo`qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o`quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish borisidagi fikr va mulohazalar aks ettirilgan.*

Kalit so`zlar: *axborot, ma'lumot, information, sezgi a'zolari, kompetensiya*

Axborot deb inson sezgi organlari orqali qabul qilinadigan biron voqea haqidagi batafsil xabar yoki barcha ma'lumotlarga aytiladi. Axborot lotincha informatio so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi.

Axborot deganda atrof-muhitdanm ya'ni tabiatdan yoki jamiyatdan, sezgi a'zolarimiz bo'lgan ko'z, quloq, burun, og'iz, teri orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma'lumotni tushunamiz. Lekin bu ma'lumotlarni to'g'ri tushunish, ahglash va amaliyotda qo'llash uchun insonlarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak.

O`quvchilarning egallagan nazariy bilimlari, hosil qilgan ko'nikma malakalari ilmiy nuqtai nazardan kompetensiya deb yuritilmoqda. Demak, kompetensiya bu – o`quvchilarning fanlar bo'yicha egallagan nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishlari, yoki lug'aviy ma'nosi lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, "erishyapman", "munosibman", "loyiqman"-degan ma'holarni anglatadi. Zero, bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or pedagogik tajribalarni keng ommalashtirilayotgan bir davrda o`quvchi ham o'z-o'ziga ishonishi va "Men yukaklikka erishyapman", "Men oliy ta'lim talabasiga munosibman", "Men maktabni oltin medaliga loyiqman"-deb ta'lim olishiga oshiqish muhitini yaratish ham dolzarb pedagogik muammo darajasiga ko'tarilmoqda.

Bugungi kun ta'limi o`quvchilarda Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilishini talab etmoqda. Zero, kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim o`quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatini bermoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o`quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Hozirgi kunda zamonaviy va shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarini rivojlanishi o'quvchilardan axborot bilan ishlash kompetensiyasi talab qilmoqda. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi bu - mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, mediamadaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ya'ni maktab o'quvchilari axborotlarni qabul qilish barobarida ularni tegishli fan sohalari bo'yicha qo'llay olishi ko'ikma va malakalariga ega bo'ladilar.

Butun dunyoda bo'layotgan ta'lim sohasidagi islohotlar bizning ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan o'quvchilarda axborot tizimi bilan ishlash kompetensiyalarini takomillashtirish natijasida quyidagilarga erishish pedagogik muammo sifatida ko'tarilmoqda:

A1

- mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni tinglab tushunib va gapirib bera olish;
- o'z yoshiga mos kitoblarni, gazeta va jurnallarni tanlay olish va kutubxonadan foydalana olish;
- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar (oddiy tabriknomalarni yoza olish) bilan ishlay olish.

A1+

- axborot manbalardan (turli badiiy adabiyotlardan) oqilona foydalana olish va ulardan xulosa chiqarish.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi tushunchasi bir qator olimlar tomonidan talqin etilgan. Masalan, O.B. Zaitsev fikriga ko'ra:

- murakkab individual- nazariy bilimlar, innovatsion texnologiyalar sohasidagi amaliy ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarining ma'lum bir majmuasi integratsiyasiga asoslangan psixologik ta'lim-deyilsa, A.L. Semyonov tomonidan esa:

- yangi savodxonlik, bu shaxs tomonidan texnologik vositalardan foydalangan holda axborotni faol mustaqil ravishda qayta ishlash, kutilmagan vaziyatlarda printsipial jihatdan yangi qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi-deyilgan.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish joiz: ta'lim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondoshuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan didaktik va texnologik tamoyillar yig'indisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тришина С.В. Информационная компетентность как педагогическая категория // Интернет-журнал «Эйдос». - 2005. - 10 сентября.
2. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T.: Ta'lim markazi, 1999.

